



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING 2024-YIL I YARIM YILLIK  
ISH REJASI**

t/r	Vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
<b>I. TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING USTUVOR VAZIFALARI</b>			
1.	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2024-yilgi Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillik	Prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish.		
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarorida belgilangan vazifalarni bajarish.		
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini ta'minlash.		
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida o'tkazilgan yig'ilishlarda oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.		
6.	Universitetning barcha faoliyat yo'nalishlari sifatini oshirish, universitetning bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror dinamik o'sishiga erishish.		
<b>II. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH</b>			
7.	Universitetda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashning dunyodagi yetakchi OTMLar tomonidan amaliyotga joriy etilgan yangicha tizimini joriy etish, shu jumladan, boshqaruv, o'quv jarayoni, talabalar bilimni baholash, o'quv adabiyotlar yaratish usullari hamda o'qitishning zamonaviy aspektlarini o'z ichiga olgan ta'lim metodologiyalarini tatbiq etib borish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari

8.	Universitetda xalqaro darajadagi madaniy-ta'lim muhitini yaratish, jumladan, xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish; ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish; shuningdek, universitet professor-o'qituvchilari, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarini xorijiy stajirovka, malaka oshirishga yuborish va tajriba orttirishlarini takomillashtirish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
9.	Chet el fuqarolarini universitetda o'qishga keng jalb qilish va masofaviy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
10.	Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun kadrlarni tayyorlash jarayonida o'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish hamda ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda ta'limning kredit-modul tizimini takomillashtirib borish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
11.	Universitetda ta'lim sifatini oshirish, sharqshunoslik va mamlakatshunoslik bo'yicha kompleks bilimga ega, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh va ehtiyoj yuqori bo'lgan mutaxassislar (bitiruvchilar) tayyorlashni takomillashtirish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
12.	O'qituvchilar tomonidan innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'zlashtirib borilishi, novatorlik ishlanmalari yaratilishining muntazam monitoringini yuritish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
13.	Universitet ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi bilan ta'minlash uchun 2023-2024 o'quv yili nashr rejasiga kiritilgan o'quv adabiyotlarini to'liq yaratish va ta'lim jarayoniga kiritish. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mualliflar tomonidan xorijiy o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish;</li> <li>• O'quv adabiyotlarini yaratish ishlariga kafedralarda faoliyat olib borayotgan xorijlik mutaxassislar hamda xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini keng jalb etish hamda ular bilan hamkorlikda o'quv adabiyotlarini yaratish;</li> <li>• O'quv adabiyotlarining mazmuni, ularning ta'lim jarayonida foydalanish yo'nalishlari masalalarini kafedralarda keng muhokama etish;</li> <li>• Tayyor bo'lgan o'quv adabiyotlariga nashr ruxsatnomasi olish uchun universitet O'quv-uslubiy kengashiga muhokamasiga belgilangan tartibda kiritish;</li> </ul>	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ijobiy xulosalar asosida nashr ruxsatnomasi berilgan o'quv adabiyotlarini nashr qilish va giperhavolali elektron nusxalarini Axborot-resurs markazi fondiga kiritish.</li> </ul>		
14.	Til ta'limi sohasida hamda Sharq mamlakatlari bo'yicha axborot beruvchi zamonaviy media mahsulotlar va elektron o'quv adabiyotlarni yaratishni davom ettirish. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha nashr etilgan yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarini giperhavolali darslik va o'quv qo'llanmalariga aylantirish	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, RTTM, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
15.	O'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilishda axborot tizimlarini joriy qilishni davom ettirish, Universitet ta'lim jarayoniga "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish – Hemis" axborot tizimi (Axborot tizimi)ning to'liq joriy etilishiga erishish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
16.	Talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun masofaviy o'qitish imkoniyatlarini takomillashtirish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
17.	Ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun professor-o'qituvchilar va talabalar orasida "qayta aloqa"ni kuchaytirish, hamda talaba yoshlarning faolligini oshirish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
18.	Talabalar malakaviy amaliyoti bazalari tarkibiga kiruvchi tashkilot va korxonalar qamrovini oshirish, aloqalarni takomillashtirish. Bitiruvchilar mehnat faoliyatini boshlashlari uchun kadrlar iste'molchilari bilan uch yoqlama (universitet-ish beruvchi tashkilot-talaba) shartnomalar tuzish va muntazam monitoringini yuritish.	I yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor
19.	Professor-o'qituvchilarining 2023/2024 o'quv yili o'quv uslubiy faoliyatini tahlil qilish va baholash	fevral, iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
20.	Universitet huzuridagi Namangan sharq tillari va xizmat ko'rsatish texnikumi faoliyatini muntazam o'rganish va tahlil natijalarini muhokama qilib borish.	fevral, iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
21.	Universitet huzuridagi Yunusobod akademik litseyi faoliyatini muntazam o'rganish va tahlil natijalarini muhokama qilib borish.	fevral, iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi

22.	Universitet mutaxassislik kafedralarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi hamkor tashkilotlar, amaliyot bazalari tarkibiga kiruvchi muassasalar huzurida filiallarini tashkil etishni davom ettirish.	yarim yillik	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedralari mudirlari
23.	2023-2024 o'quv yili Davlat attestatsiyasi hay'ati ishini talab darajasida tashkil etish: <ul style="list-style-type: none"> <li>• DAH raislarini tasdiqlash;</li> <li>• DAH komissiya tarkibini belgilangan talablar asosida shakllantirish va tasdiqlash;</li> <li>• BMI va MDlarning dastlabki va nihoy himoyalarni o'tkazish;</li> <li>• BMI yozmaydigan talabalar uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazish;</li> <li>• Bitiruvchilarga diplom rasmiylashtirish va tantanali topshirish.</li> </ul>	mart-iyun	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedralari mudirlari
24.	Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli indikatorlarini shakllantirish, universitet ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari inobatga olgan holda optimallashtirish, yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ochish bo'yicha takliflar tayyorlash	yanvar-mart	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedralari mudirlari
25.	Universitet ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kesimida zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, mehnat bozori uchun raqobatbardosh bo'lgan kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish. Ushbu maqsadlarda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalaridagi fanlarni tanqidiy ko'rib chiqish va ularni optimallashtirish.	yanvar-mart	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedralari mudirlari
26.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasi asosida ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirib borish bo'yicha professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini qayta ko'rib chiqish hamda ularning ish faoliyatini darslarga sifatli tayyorgarlik ko'rishga va ilmiy salohiyatini kuchaytirishga qaratish choralarini belgilash	doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedralari mudirlari
<b>III. ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSIYA ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b>			
27.	Universitetning ustuvor yo'nalishlari doirasida kafedralar yo'nalishlarini tahlil qilish, jumladan, qiyosiy tadqiqotlar bo'yicha yo'nalishlarni kuchaytirish.	Fevral	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari
28.	Kafedralar kesimida doktorlik (PhD, DSc) va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bazasini jahon ilm-fani taraqqiyotiga hamda sharqshunoslik sohalariga qo'yilayotgan talablarga muvofiq yangilab borish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
29.	Ilmiy maktablar faoliyatini kuchaytirish, har bir ilmiy darajaga ega bo'lmagan o'qituvchini universitetning yetakchi professorlari va dotsentlariga birlashtirish va kafedralarda ular bilan olib borilayotgan ishlarining holatini muntazam muhokama qilib borish.	Mart	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar

			dekanlari, kafedralar mudirlari
30.	Tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshirish va «Yosh olimlar kengashi» faoliyatida magistrantlar ishtirokini kengaytirish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
31	Universitetga xorijiy investitsiya va grant mablag'larini jalb etish ishlarini tashkil qilish.	I yarim yillik	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
32.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-sonli Qarori ijrosi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish	Yil davomida	Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
33.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli Qarori ijrosini ta'minlash asosida ilmiy salohiyatni ko'tarishga erishish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
34.	TDSHU huruzidagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlar (uning qoshidagi ilmiy seminarlar) faoliyatini kengaytirish, ajratilgan ixtisosliklar bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyalari tasdiqlangan Nizomlar asosida bo'lishini ta'minlash.	yil davomida muntazam	Ilmiy kengash raisi, ilmiy kotibi, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
35.	Doktorantura va mustaqil izlanuvchilik universitetiga tanlov asosida qabul qilingan doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning faoliyati monitoringini kuchaytirish, reja ijrosi uchun sharoitlarni kengaytirish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
36.	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bo'yicha 2024 yilga ajratiladigan kvotalar bo'yicha takliflar tayyorlash va o'rnatilgan tartibda vazirlikka taqdim etilishini ta'minlash.	aprel-may	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
37.	Doktorant va mustaqil izlanuvchilarning o'z yo'nalishlari bo'yicha jahon ilmiy tajribalari bilan tanishishlari va o'z tadqiqotlarida samarali foydalanishlari uchun nufuzli universitetlarning xalqaro resurslar bazasiga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ulardan samarali foydalanishlariga erishish, seminarlar o'tkazish. Doktorantlarning xorijiy universitetlarga stajirovkalarini tashkil etish.	yanvar oyidan boshlab	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

38.	Amalga oshirilayotgan doktorlik dissertatsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan faoliyatni tashkil etish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
39.	Tayanch doktorantlar va Millar uchun mutaxassislik fanlaridan tegishli tartibda malakaviy imtihonlarni tashkil etish va hisobotlarini yuritish.	fevral, may,	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
40.	Kafedralarda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bajarilishining monitoringini olib borish.	yanvaridan muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, loyihalar rahbarlari
41.	Tadqiqotchilarning yoshlar fundamental, amaliy va innovatsion loyihalaridagi ishtirokini kengaytirish: <ul style="list-style-type: none"> <li>• yosh tadqiqotchilarning ustuvor yo'nalishlar doirasida yangi loyihalar yaratishga o'rgatish yuzasidan treninglar tashkil qilish;</li> <li>• innovatsion loyihalar yaratish uchun hamkor tashkilotlar bilan ishlashga o'rgatish yuzasidan maslahatlar uyushtirish.</li> </ul>	may-iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, loyihalar rahbarlari
42.	Loyihalar va professor o'qituvchilarning ilmiy faoliyati natijalarini "Innoweek-2025" haftaligi tadbirlarida keng ishtirokini ta'minlash: <ul style="list-style-type: none"> <li>• ishlanmalarni zamonaviy shaklda namoyish etish;</li> <li>• xo'jalik shartnomalar asosida tijoratlashtirish va ijtimoiy ahamiyatini oshirish;</li> <li>• ishlanmalarga Intellektual mulk agentligidan patent va mualliflik guvohnomlarini olishga erishish.</li> </ul>	aprel-iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, loyihalar rahbarlari
43.	Loyihalar natijalari asosida respublika va xalqaro ommaviy axborot vositalarida doimiy tahliliy materiallar e'lon qilish: <ul style="list-style-type: none"> <li>• aprobatsiyadan o'tkazish maqsadida xalqaro bazalar, xususan, scopus webofscience da indekslanadigan ilmiy jurnal va gayezatalarda maqolalar chop etish;</li> <li>• olimlarning yangi tadqiqotlari haqida TVda intervyular tashkil etish.</li> </ul>	Davriy tarzda, hisobotlar natijalari bo'yicha	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, loyihalar rahbarlari
44.	Professor-o'qituvchilarning o'z yo'nalishlari bo'yicha jahon ilmiy tajribalari bilan tanishishlari va xalqaro ilmiy resurslar bazalari (SCOPUS, Web of Science, kabi) o'z tadqiqotlarida samarali foydalanishlari uchun nufuzli resurslar bazasiga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ulardan samarali foydalanishlariga erishish, seminarlar o'tkazish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, til kafedralari mudirlari, tadqiqotchilar

45.	<p>Professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalarini impakt faktorga ega bo'lgan nufuzli ilmiy jurnallarda chop ettirishga erishish.</p> <p><b>(79-band. Respublika olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini dunyo miqyosida namoyon etish, O'zbekiston olimlarining jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan tan olinishini ta'minlash maqsadida Scopus, Sciencedirect, Web of Science kabi xalqaro bazalarda chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini 5 yillik istiqbolda 20 tadan kamida 300 tagacha yetkazish.)</b></p>	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, til kafedralari mudirlari, tadqiqotchilar
46.	<p>Universitetda chop etiladigan, OAK ro'yxatiga kiritilgan "Sharqshunoslik. Vostokovedeniye. Oriental Studies" ilmiy-nazariy hamda "Sharq mash'ali" ilmiy-uslubiy jurnallari faoliyatini takomillashtirish va elektron shaklga o'tkazish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• maqolalarning ilmiy saviyasini yanada yuqori bo'lishini ta'minlash;</li> <li>• jurnallarni muntazam nashr ettirish</li> <li>• jurnallarda xorijiy mutaxassislarning ham ilmiy maqolalarini chop ettirib borish;</li> <li>• jurnallarni xalqaro miqyosga olib chiqishga harakat qilish.</li> </ul>	Har chorakda  muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
47.	Yosh tadqiqotchilarning "Sharqshunoslar anjumani" ilmiy to'plamini chop etish.	Yilda ikki marta	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
48.	Ilmiy-tadqiqot loyihalari natijasida tayyorlangan monografiya va risolalar, ilmiy anjumanlarning materiallari to'plamlari nashrlarini amalga oshirish va muhokamalarini uyushtirish.	Nashr rejasida belgilangan muddatlarda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, loyihalar rahbarlari
49.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoyish bilan tasdiqlangan reja asosida universitetda o'tkazilishi mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarni, shuningdek, vazirlik va universitet miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarni muvofiqlashtirish va yuqori saviyada tashkil etish, xulosalarini amaliyotga joriy etish.	Yil davomida alohida rejaga ko'ra	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
50.	Universitetdagi "yoshlar akademiyasi" kengashlarining yig'ilishlarida ilmiy ma'ruzalar muhokamalarini kengaytirish, tegishli tarmoqlarni rivojlantirish masalalarini muntazam muhokama qilish.	Yil davomida alohida rejaga ko'ra	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, "Yosh olimlar" kengashlari raislari
51.	Hamkor tashkilotlarning ilmiy xodimlarini ilmiy-pedagogik faoliyatga jalb etish, ilmiy xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni kafedralar seminarlarida muhokamalarini o'tkazish, amaliyotga joriy etish.	muntazam	O'quv va Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari

52.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar doirasida xalqimizning noyob merosi – qo'lyozma asarlar, nodir kitoblarni o'qish-o'rganish, tadqiq qilish va jahon hamjamiyatiga yetkazish maqsadida FA ShI Sharqshunoslik universiteti bilan hamkorlikda iqtidorli yoshlarni bu jarayonga jalb etishni kengaytirish.	muntazam	O'quv va Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari
53.	Kafedralarning hamkor tashkilotlar bilan birgalikda mavzular asosida nashrlar tayyorlashlarini kengaytirish, bu jarayonga iqtidorli talabalar va magistrantlarni ham jalb etish. Jumladan, sharq tillari va sharq mamlakatlari bilan bog'liq fanlar yuzasidan akademik litseylarga o'quv-uslubiy ta'minotni yaxshilashda ishtirok etish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish.	muntazam	Prorektor, kafedralar mudirlari
54.	Iqtidorli talabalarni bakalavrluk bosqichidanoq ilmiy faoliyatga yo'naltirishni tizimli tashkil etgan holda magistratura va doktorantura bosqichida faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan yosh kadrlar bazasini shakllantirish.	O'quv yili boshlanishida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedra mudirlari
55.	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida iqtidorli yoshlarning ishtirokini ta'minlash, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.	Yil davomida	Ilmiy va o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, fakultetlar dekanlari, kafedra mudirlari
56.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida"gi Hay'at qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini muntazam ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Navoiy nomidagi Davlat stipendiyalariga nomzodlarni tizimli tayyorlash va birinchi bosqichini o'tkazish.	Yil davomida may-iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedra mudirlari
57.	2024 yilda oliy ta'lim muassasalari talabalarini respublika fan olimpiadalarini tashkil qilish va yuqori saviyada o'tkazish. Yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan talabalarni rag'batlantirish.	Aprel-may	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, dekanlar, , kafedra mudirlari
58.	Universitet reytingini oshirish maqsadida iqtidorli talabalarning respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli tanlovlardagi ishtirokini ta'minlash va g'oliblikni qo'lga kiritishlari uchun ularni muntazam tayyorlash.	Yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedra mudirlari
59.	Talabalar ilmiy jamiyatlari, ilmiy to'garaklar faoliyatini takomillashtirish, ayniqsa, magistratura talabalarini maqsadli yo'naltirilgan holda ilmiy jamiyatlarga yo'naltirish ishlarini chuqurlashtirish, ilmiy izlanishlarini muhokama qilib borish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar



			dekanlari, kafedra mudirlari
60.	Iqtidorli yoshlarning ilmiy faoliyati natijaarini namoyish etish va aprotatsiyadan o'tkazish, ularni ma'naviy rag'batlantirish maqsadida "Kamolot sari" ilmiy to'plamini muntazam chop ettirish.	Yil davomida ikki marta iyun va dekabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
61.	Har yili yo'nalishlar bo'yicha talabalarning ilmiy anjumanlarini o'tkazish, shuningdek, respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etishlarini ta'minlash, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.	mart-aprel oylarida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
62.	Ilmiy nazariy seminarlarda iqtidorli yoshlarning ishtirokini kengaytirish.	Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
63.	Start-up loyihalarini ishlab chiqish, talabalar bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'ullarining hamkorligini tashkil etish, seminarlar o'tkazish va loyihalar taqdimotlarni uyushtirish.	fevral-may Muntazam	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
64.	Xitoy, Yaponiya, Koreya, Vengriya, Saudiya Arabistoni, Qatar kabi xorijiy mamlakatlardagi hamkor universitetlar bilan qo'shma ilmiy loyihalar ishlab chiqish.	Yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlar, kafedralar mudirlari
65.	Xorijiy hamkorlar tomonidan stajirovka o'tash, malaka oshirish, o'quv kurslarida qatnashish va doktoranturada tahsil olish uchun e'lon qilinadigan grantlar tanloviga tadqiqotchilarni tavsiya etish.	Yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
66.	Nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni tashkil etish (ilmiy loyihalar; ilmiy konferensiyalar).	Yil davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari

**IV. XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

67.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'rnatilgan aloqalarni yanada rivojlantirish va kengaytirish. Nufuzli xorijiy universitetlar, tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan ta'lim forumlari, konferensiya va simpoziumlarda (shu jumladan, onlayn formatda) TDSHU professor-o'qituvchilari ishtirokini tashkil qilish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
68.	TDSHU talabalariga dars berish, master klasslar, seminar treninglar o'tkazish uchun nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlardan malakali mutaxassislarni taklif qilish (shu jumladan, onlayn formatda).	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
69.	Universitetga taklif etiladigan chet ellik professor-o'qituvchilar, olimlar va mutaxassislarga O'zbekistonga kirish vizalari berilishi va uzaytirilishi, Toshktda vaqtincha yashash joyida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
70.	Evropa davlatlarining yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ ta'lim dasturi doirasida hamkorlikni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish.	fevral-avgust	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
71.	Chet el fuqarolarini universitetda o'qishga keng jalb qilish va masofaviy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
72.	TDSHUDA tahsil olish istagini bildirgan xorijiy talabalar va stajyorlarni o'qishga qabul qilish hamda ularning salmog'ini oshirish ishlarini tashkil qilish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
73.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan almashinuv dasturi doirasida TDSHU talabalarini chet el universitetlariga yuborish ishlarini tashkil qilish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
74.	Malayziya, Indoneziya, Hindiston, shuningdek, yetakchi arab davlatlarining nufuzli universitetlari bilan munosabatlar o'rnatish hamda ular bilan ikki tomonlama hamkorlik borasida hujjatlar imzolash.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari

75.	Universitetga xorijiy investitsiya va grant mablag'larini jalb etish ishlarini tashkil qilish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
76.	Universitet professor-o'qituvchilari xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirishi, stajirovka o'tashini tashkil etish (shu jumladan, onlayn formatda).	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
77.	Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya, Belarus, Hindiston, Misr, Turkiya, Eron va boshqa davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va xorijiy tashkilotlari bilan hamkorlikda "mahorat darslari", master klasslar, seminar treninglar o'tkazish, ma'ruzalar o'qish ishlariga xorijiy mutaxassislarni jalb etish.	May-iyun	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedralar mudirlari
78.	QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reyting agentligining QS World University Ranking 2024, Asia World University Ranking 2024 hamda Times Higher Education World University Ranking 2024, Round University Ranking (RUR) 2024 yo'nalishlariga TDSHU bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash va portalga kiritish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
79.	"Academic reputation", "Employer reputation" uchun respondentlarni to'plash uchun fakultet va kafedralarga e'lon berish, ma'lumotlarni jadval ko'rinishlarida to'ldirish va portalga kiritish.	I yarim yillik	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
80.	TDSHU xalqaro reyting ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi parametrlarni doimiy nazorat qilish va ularning holati bo'yicha universitet rahbariyatiga ma'lumot berish.	doimiy	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari

**V. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR VA YOSHLAR BILAN ISHLASH**

**Yoshlar bilan ishlash, tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha**

81.	Adiblar xiyobonida 5 ta muhim tashabbusga bag'ishlangan "Adiblar haftaligi" doirasida kitob yarmarkasini tashkil etishda qatnashish hamda " <b>Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!</b> " shiori ostida o'tkaziladigan Respublika talabalar festivalida ishtirok etish.	I yarim yillikda jadval asosida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
82.	Ta'lim muassasalarida o'qituvchi-yoshlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida turkum tadbirlar: <b>1. 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" bayrami arafasida o'quvchi-yoshlarning harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etish;</b> <b>2. "Navoiyxonlik" va "Boburxonlik" baxru-bayt kechalarini tashkil etish;</b> <b>3. "Temur tuzuklari" kitobini mutolaa haftaligini o'tkazish;</b> <b>4. Urush va mehnat faxriylari va iste'fodagi harbiylar ishtirokida uch avlod uchrashuvlarini tashkil etish.</b> <b>5. "9-may Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "E'zoz" loyihasini amalga oshirish.</b>	Yanvar  Fevral-mart  Aprel  May oylarida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
83.	Universitet tadqiqotchilari va talabalari o'rtasida " <b>Uchinchi renessans-yoshlar nigohida</b> " nomli Respublika tanlovida talabalar va tadqiqotchilarning ishtirokini ta'minlash.	Fevral-mart oylarida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
84.	Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish borasidagi targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish.	Fevral-aprel oylarida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
85.	Aktyorlik va boshlovchilik mahoratiga ega talabalardan iborat sharqshunos-talabalarning " <b>Sharq yulduzi</b> " teatr-studiyasi tomonidan qo'yiladigan teatr tomoshalarini tashkil etish.	mart	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor,

			fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
86.	Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlarga yetkazish va ular bilan yaqindan muloqot o'rnatishga qaratilgan <b>"Rektorga savolim bor"</b> xeshtegini o'tkazish.	doimiy	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
87.	Yoshlarni sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish maqsadida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda futbol bo'yicha <b>"Yoshlar kubogi"</b> musobaqalarini o'tkazish.	Mart-iyun oylarida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
88.	21-mart- <b>Navro'z</b> umumxalq bayrami munosabati bilan universitet hududi hamda talabalar turar joyida bahor sayllarini tashkil etish.	Mart	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
89.	Besh muhim tashabbus doirasida: <b>"Ma'rifatli yoshlar – yurt ko'zgusi"</b> shiori ostida <b>"Talabalar festivali"</b> , Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi, <b>"Yangi O'zbekiston – yangi dunyoqarash!"</b> shiori ostida <b>"Ma'rifat maydoni"</b> , <b>"Zakovat intellektual o'yini"</b> , <b>"Kitobxon talaba"</b> tanlovlarini tashkil etish.	Mart-iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
90.	Universitetning <b>"Nur sharqdandir"</b> <b>Kitob mening do'stim"</b> deb nomlangan kitob o'qishni targ'ib etuvchi insholar ko'rik tanlovini tashkil etib borish hamda takomillashtirish	Mart-iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
91.	Manfaatdor idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda universitet professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlari o'rtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish maqsadida <b>"Tinchlik-eng oliy ne'mat"</b> , <b>"Islomda ekstremizm va terrorizmga o'rin yo'q"</b> , <b>"Yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini</b>	Yil davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor,

	<b>olish va jinoyatchilikni bartaraf etish”, “Giyohvandlikdan yoshlarimizni asraylik” kabi mavzularda davra suhbatlari, ma’rifiy tadbirlar o’tkazish.</b>		fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari
<b>VI. MODDIY-TEXNIKA BAZANI MUSTAXKAMLASH</b>			
92.	TDSHuning Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uyda joylashgan “A” blokida rekonstruksiya ishlarini yakunlash.	I yarim yillikda	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
93.	2023 yil investitsiya hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida TDSHuning Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 26-uyda joylashgan hududida rekonstruksiya qilingan 3 qavatli o‘quv binosini qabul qilish bo‘yicha ishchi va davlat Hay‘ati dalolatnomalarini rasmiylashtirish.	yanvar-fevral	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
94.	TDSHuning Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uyda joylashgan o‘quv binolar atrofidagi 2500 m <sup>2</sup> maydondagi gazon (maysa) ekilgan hududlarni sug‘orish uchun tik quduq (skvajina)ga ulangan holda obodonlashtirish-sug‘orish tizimini yaratish.	I yarim yillikda	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
95.	Barcha o‘quv binolari hamda TTJ binosi hovlisida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish: qurigan daraxt shohlarini kesish, ariqlarni tozalash, yig‘ilgan chiqindilarni olib chiqib tashlash.	Mart-aprel	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
96.	TDSHuning Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 26-uyda joylashgan o‘quv binolariga optik tolali telefon tarmog‘ini o‘tkazish, universitetning barcha binolaridagi yuqori quvvatli elektr tizimini laboratoriya sinovidan o‘tkazish.	Aprel-may	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
97.	Universitetning o‘quv binolarini yangi o‘quv yiliga tayyorlash maqsadida barcha binolar va TTJ binosini taftishdan o‘tkazish.	Iyun	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
98.	Davlat xususiy sherikchilik asosida Mirzo-Ulug‘bek tumani Ziyolilar ko‘chasi 33-uy manzilida qurilayotgan 400 o‘rinli talabalar turar joyini foydalanishga qabul qilish.	I yarim yillik	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
99.	Ilmiy kengash va ilmiy markazlarni jihozlash ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	I yarim yillik	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis
100.	Universitetga xorijiy investitsiya va grant mablag‘larini jalb etish ishlarini tashkil qilish.	I yarim yillik	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, Bosh muhandis